

## TIBBIY ETIKA VA DEONTOLOGIYA ASOSLARI

*Yusupov Hamza Safarovich*

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*Tibbiyat fakulteti ichki kasalliklar kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiyatga kirish fanining “Tibbiy etika va deontologiya asoslari” mavzusi masalalari bayon etilgan.

Shifokorning bemor bilan, bemor qarindoshlashlari bilan, shuningdek boshqa tibbiyat xodimlari bilan muloqati, muloqat turlari, tibbiyat xodimlarining bemor oldidagi majburiyati va ma'suliyati, tibbiyat xodimlarining siri, tibbiy xatoliklar, yatrogeniya va eftrenaziya tushunchalari keng yoritilgan.

Aholiga davolash va profilaktik yordamni tashkil etish va o'tkazishda uchrayotgan kamchiliklarning tibbiy muloqatga bog'liq tomonlari, tibbiyat xodimlaring turli ta'ziqlarga uchrash sabablari, ularning qonun bilan himoyalanish tamoillari ko'rsatilgan.

Tibbiyat xodimlarining o'z majburiyatini bajarish vaqtidagi yo'l quygan tibbiy xatoliklar (yatrogeniya) va ularni bartaraf etish, uning oldini olish chora tadbirlari, tibbiyat sirlarini saqlashning bemor ruhiyatiga ta'siri turli usullarda bayon etilgan.

Tibbiy eftrenaziya tushunchasi va turlari keng yoritilgan.

Maqola asosan tibbiyat oliygohlari talabalariga mo'ljallangan, shuningdek, barcha bug'indagi tibbiyat xodimlariga ham foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** Muloqat, verbal va noverbal muloqat, ahloq, odob, etika, tibbiy etika, deontologiya, Egrotogeniya, Egrogeniya, bioetika.

**MULOQOT** - ikki va undan ortik kishilarning o'zoro muomulasidan iborat jarayondir. O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari-o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir.

**VERBAL MULOQAT** - faqat insonlarga xos muloqat turi bo'lib, har tomonlama rivojlangan funksional nutq organlari yordamida o'z istagini so'z bilan bayon etish usulidir.

**NOVERBAL MULOQOT** - inson imo-ishoralar yordamida o'z istagini bayon etish usuli.

**AXLOQ** — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik

tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. axloqni etika fani o'rganadi.

ODOB - bu insonniy ijobiy fazilatlaridan biridir. "o'zbek tilining izohli lug'ati"da: "odob - "adab" (arabcha)" deyiladi. va yana shu kitobda: "adab (arabcha)-adabiyot, yaxshi tarbiya, ma'qul harakat. ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomilalik" deyiladi. luqmoni hakimdan odobni qaerdan o'rganding?" deb so'rashganda, odobni beadablardan o'rgandim" deb javob bergen ekan. inson umri davomida o'z odobini yaxshilab bormog'i lozim. odatda odob oldin o'rganilib, undan so'ng esa unga amal qilinadi.

ETIKA (yun. egpoz — xulq, odat) — axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy fan. Etika axloqshunoslikning falsafiy nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik amaliy asarlarni o'z ichiga oladi U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqlar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonunqoidalarni o'rgatadi.

Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari — kategoriyalari bor: fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik,adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar Axloq inson va jamiyat hayotining barcha (shaxsiy, jamoaviy, kasbiy va h. k.) jabhalarini qamrab olganligi tufayli uni o'rganuvchi Etika barcha fanlar bilan aloqador. Etika bu barcha insonlar orasidagi muloqatdir. SHuningdek ummiy etika inson kasbiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan sotuvchilar etikasi, sartoroshlar etikasi, o'qituvchilar etikasi, tibbiyot xodimlari etikasi (tibbiy etika)...

TIBBIY ETIKA - shifokor va bemor o'rtasidagi, shifokor va bemor qarindoshlari o'rtasidagi, shuningdek tibbiy xodimlarning o'zoro kasbiy-tibbiyotga oid muloqatini ifodalaydi.

DEONTOLOGIYA - (deontologiya-burch degan ma'noni beradi, barcha kasblarda deontologik yondoshuv to'g'risida fikr yuritiladi, lekin halq orasida deotologiya atamasi ko'pincha tibbiyot xodimiga tegishli degan tushuncha mavjud) tibbiyot xodimi ( shu jumladan shifokor) ning bemor oldidagi majburiyatini va unga yuklangan ma'suliyatini, ya'ni bajarishi lozim bo'lgan ishini ifodalaydi.

EGROTOGENIYA – bu bir bemorning ikkinchi bemorga salbiy ta'siri, bu asosan shifoxona sharoitida yoki bemorni ko'rishga borgan vaqtidagi ta'siri natijasida kelib chiqadi. Bu omil ham yatrogen kasalliklarga olib keladi.

EGOGENIYA – bemorning o'z kasalligini bilgandan so'ng tushkunlikka tushishi natijasida kelib chiqqan yatrogen kasallik. (Mana shuning uchun ham ayrim kasalliklar bemorlardan sir tutilib (agar so'rasa boshqa engilrok kasal turi aytildi) boriladi va

shuning uchun ham bemorlar qo‘liga kasallik tarixlari ham berilmasligi kerak bo‘ladi, kasalligi to‘g‘risida qarindoshlariga tushuntirilib aytildi).

BIOETIKA – tabiatdagi tirik jonzotlarning o‘zoro muloqatidir. Ko‘pgina insonlar bioetika va etika( umumiyl muloqat) hamda tibbiy etika(faqat tibbiyotga bog‘liq muloqat) ni farqlashda qiynaladi. Bioetika- bu bio-hayot, etika muloqat so‘zidan kelib chiqqanligini yana bir esga olamiz, hayotda tirik jonzotlar 3 ta asosiy turga bo‘linadi odamlar, hayvonlar(zamburug‘, virus...) va o‘simliklar. Bioetika-tabiatdagi tirik jonzotlarning o‘zoro bir biri bilan muloqati. Bunda asosiy o‘rinni odamlar egallaydi. CHunki insonlar oliy nerv faoliyati yaxshi rivozlangan oliy mavjudot sanalib, tabiatda hayvonlar va o‘simliklar ustidan xukmronlik qilmoqdalar. Insonlar barcha tirik jonzotlar( insonlar bir-biriga nisbatan, hayvonlarga hamda, o‘simliklarga nisbatan) mehr- murivatli bo‘lishi insoniylik tamoillaridan biridir. Insonlar hayvonlarni xo‘rashi, o‘simliklarni o‘sishiga to‘sinqilik qilish (agar inson yashashiga halaqit bermasa...) jamiyatda qoralanadi. Bu insonni hayvon bilan muloqati, ya’ni bioetikaning bir ko‘rinishidir.

SHifokorning bemor bilan muloqatida bemorni tuzalishga bo‘lgan ishonchini paydo qilish, davolanish samaradorligini 50% ga oshirishi mumkin. Bemorning shifokor bilan ijobiy muloqati bemorning ruhiy-emotsional holatiga ta’sir etib, kayfyatini kutarilishga olib keladi, natijada sog‘ayish tezlashadi, tushkunlikka tushishini oldini oladi.

Bemorni davolash uchun nafaqat dori-darmonlar va boshqa tibbiy muollojoalar, balkim muloqatning ham muhum o‘rni bor.

2019-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot xodimlariga 285 dan ortiq xolatda turli shakldagi tajovuzlar qilingan. Bunga sabab aholining ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatidan norozilik zamirida qopol muloqatda bo‘lish jumlesi ko‘p takrorlanmoqda. Bu o‘z navbatida “Tibbiy etika va deontologiya asoslari” mavzusini haligacha dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida 265-I-son qonuni (1996 yil 29 avgust,) qabul qilingan.

2018 yil 7 dekabrdagi 5590-sonli PQ («O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida») va shu PQ ga asosan O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2019 yilning 17 iyulida 161-sonli buyrug‘iga asosan, «Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi» tasdiqlangan.

SHuningdek tibbiyot xodimlari foliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun choralar kuchaytirilishi kutilmoqda.

Zamonaviy tibbiyotning bemorga g‘amxo‘rlik qilishda nafaqat dori-darmon, yoki operativ aralashuv orqali balkim, bemorga psixologik ta’sir etishga ham muxtojlik sezmoqda. Bu esa tibbiy axloq-obod normalarini mukammalashuvini talab etmoqda.

Bu tibbiy etika va deontologiyani o‘z ichiga oladi. Tibbiy muloqat vaqtida tibbiyotga tegishli mutaxassisliklarga tegishli ma’lumotlardan unumli foydalanish ijobiy natija beradi.

Talabalar qaysi etapda o‘qimasin bemorlar bilan muloqat qiladilar, shuningdek kelgusi ish faoliyatida ham bemorlar bilan muloqat o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Tibbiy etika axloqning ajralmas qismidir. Bioetika insonni barcha tirik mavjudotlar (inson, hayvon va o‘simliklar) bilan umuminsoniylik, raxm-shavqat fazilatlarini nomoyon etuvchi muloqatidir. Barcha insonlar muloqatning ikki turidan foydalanadilar. Verbal (to‘g‘ridan - to‘g‘ri so‘zlashuv nutqi orqali) va noverbal (turli imo-ishoralar orqali) turlarga bo‘linadi. SHu muloqat turlaridan tibbiyot xodimlari ham foydalaniлади. Tibbiy etika esa faqat bemorlar bilan tibbiyot xodimlari o‘rtasida (shuningdek bemor qarindoshlari va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi, tibbiy xodimlar o‘zaro muloqatlari) gi ahloq-odob mi’yoriy normasini ifodalaydi. Deontologiya esa shifokorning bemor oldida bajarishi lozim bo‘lgan majburiyati yoki ish beruvchi oldidagi ma’suliyatini ifodalaydi.

Tibbiy etika va deontalogiya asrlar davomida to‘ldirilib kelmoqda, bu o‘z navbatida bemorlarga g‘amxo‘rlikni bir bo‘lagini ifodalab. tibbiyotning insoylik kasbi sifatida rivojlanishiga olib keldi.

Bemorlar bilan tibbiy muloqat nafaqat, bemorga tashxis quyishda, balkim davolash va davolashdan keyingi reabilitatsiya davrida psixo-emotsional o‘zgarishlarni kuzatishda muhimdir.

Insonlar o‘rtasidagi o‘zoro muloqat, shifokor va bemor o‘rtasidi muloqatning o‘ziga xos tomonlari.

Er yuzida ilk insoniyat rivojlanish tarixida insonlar bir-biri bilan imo-ishoralar orqali muloqat qilishgan. Keyinchalik muloqatni qulaylashtirish, o‘zoro tushinishga intilishi natijasida nutq shaklanib borgan. Keyinchalik har bir qabilada o‘zoro bir-biri bilan muloqatda imo-ishoradan ikki tomon ham tushunadigan shartli tovushlarni qo‘llay boshlagan. SHu tariqa o‘zoro mahalliy til shakllangan. Nutqning rivojlanishi insoniyat tarixida o‘zoro muloqatning imo-ishoradan so‘zlashuvga o‘tishiga olib keldi. Endilikda imo-ishora orqali muloqat zahira o‘rniga tushib qolgan. Muloqatda ahloq-odob qoidalariga rioya etish etika deyiladi. Hozirgaga ko‘plab etiket qoidalari turli millatlar tomonidan ishlab chiqilib, insonlar o‘zoro muloqatda qo‘llab kelmoqdalar.

Nutq orqali muloqat barcha insonlar uchun xos mezonlardan biridir, bugungi kunda inson sog‘lom bo‘ladimi, kasalmi nutq orqali o‘zoro muloqat qiladi. Istisno tariqasida nutq organlari kasallangan (shikastlangan,...) yoki rivojlanish nuqsonlari bilan dunyoga kelgan insonlardan tashqari deyish mumkin.

Nutq organlarining turli kasalliklariga chalingan bemorlar imo-ishora usulidan keng foydalanadilar, shunga qaramasdan ular o‘z fikrini boshqa insonlarga to‘liq ifodalab berishga qiynaladilar. SHu sababli bu insonlarni eshitish yoki gapirish

cheklangan insonlar deb yuritamiz.

Nutq organlarining ortirilgan kasalliklariga ovoz bog‘lamining turli sabablarga ko‘ra kasalliklari sabab bo‘ladi. (turli etiologiyali kuyishlar, o‘sma, ovoz bog‘lami nerv ta’minoti shikastlanishi, zaharlanishlar.... bunga misol bo‘ladi).

Nutq organlarining to‘g‘ma kasalliklariga tug‘ma karlik, tug‘ma til quqsonlari, ovoz bog‘lami alohida yoki ko‘p komponentli kasallik tarkibida rivojlanish nuqsonlari... kiradi.

Tibbiyot xodimi bemorga g‘amxo‘rliq qilishi uchun u bilan muloqat qilishi lozim. Muloqatning eng qulay usuli nutq orqali-verbal muloqatdir. Muloqat bemor bilan aloqaga kirish darvozasi sanaladi.

Katta yoshdagi bemorlar va hali tili chiqmagan kasal bolalar bilan bilan muloqatning farqi katta. Katta yoshdagi bemorlar o‘z kasallik belgilari to‘g‘risida shifokorga nutq yoki imo-ishora orqali tushuntirib bera oladi. Kichiq yoshdagi, tili chiqmagan gudaklarda hali nutq rivojlanmagani yoki imo-ishora qilish qobiliyati ham to‘liq shakllanmagani uchun muloqat juda qiyin kechadi. SHu sababli gudaklar (bolalar) bilan ishlovchi vrachlarni alohida tayyorlanadi va ularga alohida ma’suliyat yuklanadi.

Sog‘lom insonlar bilan muloqat qilishning, bemorlar bilan muloqat qilishdagi farqi nima? Kundalik hayotda sog‘lom odamlar bir-biri bilan boshqa hayotiy mavzularda muloqat qilishadi. Agar zarurat bo‘lsa, kamdan -kam holatda ikki sog‘lom inson bemorlar to‘g‘risida muloqat qiladilar.

Biri sog‘lom va biri bemor insonlar o‘rtasida muloqat nisbatan ko‘proq uchraydi. Bunda bemor sog‘lom odamdan sog‘lig‘ini tiklashga umidvor so‘z eshitishni, yoki davolanishiga bog‘liq holatga doir dori, davolanish manzili, davolanish usuli.. kabilar to‘g‘risida o‘zoro fikr almashadilar.

Biri bemor biri shifokor bo‘lganida muloqat aniq bir diagnoz quyish yoki davolanishga qaratilgan bo‘ladi. Muloqatning bu turi tibbiy etikaning bemor va tibbiyot xodimi muloqati turiga to‘g‘ri keladi.

SHuningdek shifokorning bemor qarindoshi bilan bemor to‘g‘risidagi muloqati ham farqlanadi. Bu muloqat bemorning sog‘liq darajasi, davolanish taktikasi, dori ehtiyoji kabi mavzularda bo‘ladi. Muloqatning bu turi tibbiy etikaning bemor qarindoshlari bilan tibbiyot xodimi o‘rtasidagi muloqati turiga to‘g‘ri keladi.

Tibbiyot xodimlarining o‘zoro muloqati ham muhimdir. Bunda vrachning qo‘l ostidagilar bilan (hamshira yoki kichiq tibbiy xodim bilan) muloqati, vrachning vrach bilan muloqati, vrachning rahbariyat bilan muloqati turlari farqlanadi. Muloqatning bu turi tibbiy etikaning tibbiyot xodimlaring o‘zoro muloqat turiga to‘g‘ri keladi.

Tibbiy etika, ya’ni bemor yoki bemor qarindoshlari bilan tibbiy muloqat har qanday tibbiy tibbiy xodim, u shifokormi, hamshirami, kichik tibbiy xodimi bo‘ladimi bemorni sog‘ayishiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunda tibbiyot xodimlarining birini

fikri , ikkinchisini inkor etmasligi kerak. Bu to‘g‘risida tibbiyot siri bo‘limida ham tuxtalib o‘tamiz. Tibbiy xodimlarning bemorga munosabati, ularning darajasidan qat’i nazar, jamoa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar muhim bo‘lgan jamoada ma’lum bir psixologik muhitni yaratishga katta ahamiyat beriladi.

Tibbiy etika, madaniyat, axloq ko‘p jihatdan bir-biriga bog‘liq va sog‘liqni saqlashning asosiy mezoni sifatida baholanadi. Tibbiy etika (lat. ethica, etika, yunon tilidan. Ethice axloq, axloqni o‘rganish), yoki tibbiy deontologiya (yunon. Deon-burch degan ma’noni beradi) "deontologiya" atamasi so‘nggi yillarda adabiyotda keng qo‘llaniladi) bu tibbiyot xodimlarining kasbiy vazifalarini bajarishda axloqiy me’yorlar va xulq — atvor tamoyillari to‘plamidir. Tibbiy etika deontologiyani bir-biridan farqi shuki tibbiy etika –shifikorning bemor bilan muloqatda hulq-atvori, deontologiya bajarishi lozim bo‘lgan majburiyatidir. Birinchi marta "deontologiya" atamasi XIX asrda ingliz faylasufi Bentam tomonidan kiritilgan. U o‘zining "deontologiya yoki axloqshunoslik" kitobida turli kasblarga nisbatan burchta’limotining asosiy qoidalarni bayon qilgan. Tibbiy ma’noda tibbiy etika va deontologiya-bu tibbiyot xodimining bemorga nisbatan huquqiy, kasbiy va axloqiy majburiyatlari va o‘zini tutish qoidalari to‘g‘risidagi ta’limot. Bundan tashqari, deontologiya tibbiyot xodimlari va bemorlarning qarindoshlari, shuningdek, tibbiyot jamoasidagi hamkasblar o‘rtasidagi munosabatlar normalarini belgilaydi .

Tibbiy deontologiya masalalari tibbiy etika bilan chambarchas bog‘liq.

Axloq - bu odamlarning axloqiy xulq-atvori normalari tizimi, ularning bir-biriga, jamiyatga, Vatanga bo‘lgan majburiatlari, yaxshilik va yomonlik haqidagi umuminsoniy g‘oyalari asosida, shuningdek-axloq, axloq, mafkura shakllaridan biri sifatida, uning mohiyati, tarixiy rivojlanish qonunlari va ijtimoiy hayotdagi o‘rni.

Tibbiy etika sog‘liqni saqlash xodimini kundalik ishda boshqaradigan, jamiyat va har bir insonning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash yoki kasallik paytida uni qaytarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan axloqiy mezonlarning to‘liq to‘plamini ko‘rib chiqadi.

Turli xil tarixiy davrlarda dunyo xalqlari milliy, diniy, madaniy va boshqa xususiyatlar tufayli turmush tarzi bilan bog‘liq tibbiy etika to‘g‘risida turli xil fikrlarga ega edilar. Tibbiy axloq tarixi, tibbiyot xodimlarining bemorlarning sog‘lig‘ini himoya qilish bo‘yicha axloqiy majburiatlari ming yilliklarga borib taqaladi va qadimgi Hind samihita axloqidan, Yaponianing ri-shu tibbiyot kodeksidan, qadimgi yunon va qadimgi hind amrtarixidan kelib chiqqan bo‘lib, unda tibbiyot xodimlariga rahmdil, xayrixoh,adolatli, sabrli, xotirjam bo‘lish va hech qachon jahlini ko‘rsatmaslik haqida ko‘rsatmalar berilgan . Har bir shifikor uchun zarur bo‘lgan ko‘plab fazilatlar haqida muhim fikrlar va bayonotlarni o‘z ichiga olgan ko‘plab qadimiy yodgorliklar (Bobil, Misr, Xitoy, rus va boshqalar) turli mamlakatlar va xalqlar shifikorlarining izlanishlari mulohazalarini tasdiqlaydi. VII-XII asrlarda SHarqiy tiklanish davrining taniqli

mutafakkirlari al-Ruhaviy, Ar-roziy, Ibn Sino, Maymonid asarlarida tibbiy etika asoslari katta rivojlandi. IX asrda Al-Ruhaviy tomonidan taklif qilingan. Adab al-tabib (shifokorning an'anaviy axloqi) asta-sekin tibbiyat fanining maqsad va vazifalarini ma'naviy-axloqiy tushunish uchun bilim tizimiga aylandi. Umumiy va sanitariya madaniyatining buyuk ma'rifatparvari, mafkurachisi va targ'ibotchisi Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarlarida ko'p asrlar davomida shifokorlarning asosiy axloqiy tarbiyasiga xizmat qilgan tibbiy axloqning insoniy tamoyillarini bayon qildi. Ibn Sino shifokorning obro'si nafaqat uning bilimlari, ko'nikmalari va tajribasiga, balki uning ma'naviy, axloqiy qiyofasiga ham bog'liq deb hisoblagan. SHifokor, uning fikriga ko'ra, bemorga yumshoq, mehribon, sezgir bo'lishi kerak. SHarqiy Uyg'onish davri epidemiologiyasining asoschisi Ar-roziy "tibbiy aforizmlar" asarida davolanish etikasi masalalariga to'xtalib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, o'zini tibbiyat xizmatiga bag'ishlagan odam nafaqat ma'lumotli, balki, avvalambor, kamtarin, halol, rostgo'y va insonparvar, har qanday masalaning mohiyatini chuqur o'rganishi kerak. Tibbiy davolanishning axloqiy masalalari, shuningdek, fan tarixida Maymonid nomi bilan tanilgan Abu Amran Mussa Ben Mamunning "shifokorning ibodati" asarida ham bayon etilgan. Ushbu tarixiy hujjatning ma'naviy boshlanishi zamonaviy tibbiy etika va deontologiyani rivojlantirish asoslarida kuzatilishi mumkin. Ammo eng aniq tibbiy axloq Gippokrat qasamyodida namoyon bo'ladi, bu umuman tibbiy axloqning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi va boshqa professional axloqiy tibbiy kodekslarni yaratish uchun boshlang'ich nuqtaga aylandi.

Tibbiy deontologiya, ya'ni shifokorning bemor oldidagi burchini bajarishdagi ma'sulyatini shifokorlik qasamiyodi bilan mustahkamlangan. Birinchi shifokorlik qasamiyodini Gippokrat yozgan va tobobat faniga kiritgan.

**Hozirgi vaqtida yosh shifokorlar O'zbekston shifokorlari qasamiyodini qabul qiladilar, bu qasamiyod qonun bilan mustahkamlangan.**

#### **O'zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi**

SHifokor diplomini olayotgan shaxslar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi: Unda «SHifokor degan yuksak unvonni olib, tibbiyat faoliyatiga kirishar ekanman:

o'zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog'lig'ini saqlashga bag'ishlashga;

yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bemorga kuch-g'ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga;

bemorning sog'lig'ini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo'yishga, kamtar va halol bo'lishga, o'z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga;

shifokor sirini saqlashga;

kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;

Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug‘ tabiblarning shonli an'analarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman».

SHifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.” degan jumla bilan yakunlanadi.( O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonuni 29.08.1996 yildagi 265-I-son yakuniy 4-yakunlovchi bo‘lim, 44-modda)

Tibbiyotning turli sohalarida bemorlar bilan muloqat(etika) va tibbiy burch(deonologiya)ning mohirlik(profitsional) darajada kutarish uchun alohida o‘ziga xos mezonlar ishlab chiqilgan. Bunda jarrohlik etika va deontologiyasi, terapevt yoki akusher-ginekolog etika va deontologiyasidan tubdan farq qiladi.

Masalan jarrohlik deontologiyasiga rus shifokori N. N. Petrov asos solgan u o‘zining "Jarrohlik deontologiyasi masalalari" (1945) kitobida to‘liq bayon qilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qosimov E. Y., SHifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san’ati, Tibbiyot deontologiyasi, 2002.
2. Tibbiyot deontologiyasi xalqaro kodeksini Xalqaro vrachlar jamiyati tasdikdagan (1949, Jeneva).
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida 265-I-son qonuni ( 1996 yil 29 avgust,);
4. O‘R fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida 265-I-son qonuni ( 1996 yil 29 avgust,)ga asosan O‘zbekiston Respublikasi SSVining 2019 yil 17 iyuldaggi 161-son tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi to‘g‘risidagi buyrug‘i.